ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 430 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ashurov Ramzidin Ramazonovich** – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
***Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent***
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor***
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ashurov Ramzidin Ramazonovich –** Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness ..... 10
**Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich**

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
**Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich**

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar ..... 20
**Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li**

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari ..... 26
**Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi**

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati ..... 31
**Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna**

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi ..... 37
**Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi**

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida ..... 45
**Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li**

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish ..... 51
**Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich**

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi ..... 55
**Abdullayeva Mavluda Aribovna**

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar ..... 62
**Ablokulov Sherali Davronovich**

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi ..... 66
**Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li**

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati ..... 71
**Nasretdinova Feruza Nabiyevna**

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks ..... 75
**Nilufar Achilovna Tuxtayeva**

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach ..... 79
**Rakhimov Mansur**

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence ..... 83
**Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi**

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni ..... 89
**Sh. A. Nurmatova**

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma ..... 94
**Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi**

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli ..... 102
**Usmonova Dilnoza Muratovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка ..... 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv ..... 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish ..... 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish ..... 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari ..... 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ..... 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati ..... 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari ..... 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish ..... 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar ..... 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil ..... 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil ..... 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish ..... 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ..... 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi ..... 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish ..... 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash ..... 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari ..... 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ..... 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity ..... 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi ..... 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari ..... 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili ..... 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения ..... 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini ..... 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni ..... 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari ..... 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish ..... 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari ..... 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish ..... 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar ..... 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS ..... 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ..... 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod ..... 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari ..... 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель ..... 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari ..... 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца ..... 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari ..... 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari ..... 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati ..... 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida... 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari... 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

Shaxs psixik taraqqiyotida ruhiy holat modeli mental resurs tizimining zaruriy asosi sifatida... 348
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ tafakkurini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi (TRIZ va milliy xalq o‘yinlari misolida)... 353
Abdusattorova Umida Abdusamad qizi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’limning imkoniyatlari... 359
Ergasheva Muslima Komiljon qizi

Skoliozi bor talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi: shaxslararo munosabatlar va emotsional holat xususiyatlari... 362
Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich

Imom Abu Homid G‘azzoliy ilmiy-ma’rifiy merosi asosida oliy ta’lim talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish... 366
Ochilov Yakub Saydulloyevich

Socio-Psychological Factors in Staff Management in Early Childhood Education... 371
Tursunova Shaxnoza Elmurodovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari... 376
Xudoynazarova Feruza Ilxomovna

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar... 380
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Дидактическая модель развития когнитивных учебных действий младших школьников на языковом, текстовом, интерпретационном и трансформационном уровнях усвоения понятия “имя существительное”... 384
Солохиддинова Фазилатхон Мухиддин кизи

Raqamli jamiyatda shaxs qadriyatlarining rivojlanishida metakognitiv jarayonlarning psixologik roli... 389
Raxmonova Zarifa Ne’matovna

“Maktab maslahatchisi”ning 6 vazifasi: ijtimoiy-pedagogik tahlil... 392
Jumanov Sherzod Saloyevich

4K modeli (kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash)ning paydo bo‘lishi va pedagogik asoslari... 397
Raximova Shoira Adilbekovna

Methods for Increasing the Effectiveness of Professional Activities of Higher Education Professors and Teachers Using Digital Technologies... 401
Qosimov Jahongir Avlaqulovich

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari... 406
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'limda talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ... 410
**Mamatova Saodat Maxmudovna**

Pedagogical Foundations of Developing Digital Culture in Future Teachers:
A Stage-By-Stage Model and Assessment Criteria ... 415
**Urazova Surayyo Elmurod qizi**

Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda
axborot texnologiyalarining o'rni ... 419
**A. I. Raxmanov**

Bo'lajak o'qituvchilarni xulq-atvordagi og'ishlarni korreksiyalashga tayyorlashning
suggestiv-pedagogik mexanizmlari ... 425
**Shermatova Manzura Ikromjanovna**



# O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZI: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
E-mail: dilyuldasheva83@gmail.com
**ORCID: 0000-0002-3898-2113**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, uning ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi o'rnini mustahkamlash hamda rivojlanish istiqbollarini belgilash masalalari yoritiladi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining tarixiy ahamiyati, til siyosati doirasida amalga oshirilgan islohotlar, davlat boshqaruvi va ish yuritish tizimida o'zbek tilining qo'llanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tilining amaliy faoliyatdagi mavqeyini yanada mustahkamlash bilan bog'liq muammolar, jumladan, rasmiy hujjatlarda til me'yorlariga rioya qilish, terminologiyani takomillashtirish, ta'lim jarayonida til madaniyatini rivojlantirish va raqamli makonda o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Maqolada davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan ustuvor vazifalar va istiqbolli yo'nalishlar yuzasidan ilmiy-amaliy mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, davlat tili, til siyosati, til nufuzi, milliy o'zlik, til madaniyati, rasmiy ish yuritish, til me'yorlari, terminologiya, raqamli makon.

**Abstract:** This article examines ways to enhance the prestige of the Uzbek language as the state language, strengthen its role in various spheres of public life, and identify prospects for its further development. It analyzes the historical significance of granting Uzbek the status of the state language, reforms implemented within the framework of language policy, and the use of Uzbek in public administration and official documentation. Particular attention is paid to challenges related to strengthening the practical status of the state language, including compliance with linguistic standards in official documents, the improvement of terminology, the development of language culture in education, and the expansion of Uzbek language resources in the digital environment. The article also presents research-based and practical considerations concerning priority tasks and promising directions for enhancing the prestige of the state language.

**Key words:** Uzbek language, state language, language policy, language prestige, national identity, language culture, official documentation, linguistic standards, terminology, digital environment.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы повышения престижа узбекского языка как государственного, укрепления его роли в различных сферах общественной жизни и определения перспектив его дальнейшего развития. Анализируются историческое значение придания узбекскому языку статуса государственного, реформы, реализуемые в рамках языковой политики, а также применение узбекского языка в системе государственного управления и официального делопроизводства. Особое внимание уделяется проблемам дальнейшего укрепления позиций государственного языка в практической деятельности, в том числе соблюдению языковых норм в официальных документах, совершенствованию терминологии, развитию культуры речи в образовательном процессе и расширению возможностей узбекского языка в цифровом пространстве. В статье представлены научно-практические положения относительно приоритетных задач и перспективных направлений повышения престижа государственного языка.

**Ключевые слова:** узбекский язык, государственный язык, языковая политика, престиж языка, национальная идентичность, культура речи, официальное делопроизводство, языковые нормы, терминология, цифровое пространство.

## KIRISH

Til – millatning ma'naviy qiyofasi, tarixiy xotirasi va milliy o'zligini namoyon etuvchi muhim ijtimoiy hodisadir. U nafaqat kishilar o'rtasidagi muloqot vositasi, balki xalqning asrlar davomida shakllangan madaniy merosi, urf-odatlari, qadriyatlari va tafakkur tarzini avloddan avlodga yetkazuvchi beqiyos ma'naviy boylik hamdir. Shu nuqtayi nazardan, davlat tilining maqomi, nufuzi va amaliy qo'llanish doirasini kengaytirish har qanday mamlakatning milliy taraqqiyoti, ma'naviy yuksalishi hamda davlat mustaqilligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakatimiz tarixidagi muhim siyosiy, huquqiy va ma’naviy voqealardan biridir. 1989-yil 21-oktabrda 3561-XI-son[1] “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilining jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlash, uning davlat boshqaruvi, rasmiy ish yuritish va ijtimoiy munosabatlar tizimida qo‘llanishi uchun huquqiy asos yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash, uni milliy qadriyat va ma’naviy taraqqiyot omili sifatida rivojlantirish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat tilining nufuzini oshirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat tashkilotlarida ish yuritishning davlat tilida olib borilishi, qonunchilik hujjatlari va rasmiy axborot matnlarida adabiy til me’yorlariga rioya qilinishi, ilm-fan va ta’lim sohalarida o‘zbek tilining imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy terminologiyani takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalar vositasida o‘zbek tilidagi axborot resurslarini ko‘paytirish dolzarb vazifalardandir. Shu bilan birga, ayrim rasmiy matnlarda til me’yorlarining buzilishi, terminlarni bir xilda qo‘llashdagi tafovutlar, tarjima sifatiga oid kamchiliklar va internet makonida o‘zbek tilidagi sifatli kontentga bo‘lgan ehtiyoj davlat tili nufuzini yanada oshirish yo‘lida alohida e’tibor talab etadigan masalalar sirasiga kiradi.

Davlat tilining haqiqiy nufuzi faqat uning qonun bilan mustahkamlangan maqomi bilangina emas, balki kundalik ijtimoiy hayotda qay darajada qo‘llanishi, ilmiy va kasbiy faoliyatdagi imkoniyatlari, jamoatchilikning til madaniyati hamda unga bo‘lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Shu sababli davlat tilini rivojlantirish jarayonida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, tilga hurmat tuyg‘usini kuchaytirish, aholining nutqiy savodxonligini oshirish va zamonaviy kommunikatsiya vositalarida uning mavqeyini mustahkamlash muhimdir.

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash hamda uning istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun davlat tili maqomining tarixiy-huquqiy asoslarini yoritish, o‘zbek tilining ijtimoiy hayot va rasmiy ish yuritishdagi o‘rnini ko‘rib chiqish, til siyosatining dolzarb masalalarini tahlil qilish hamda davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish vazifalari belgilangan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi, avvalo, uning huquqiy maqomi va jamiyat hayotidagi amaliy o‘rni bilan belgilanadi. 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi Qonunning qabul qilinishi o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini mustahkamlash yo‘lidagi muhim tarixiy qadam bo‘ldi. Mazkur qonun 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda tasdiqlandi. Qonunning 1-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb belgilangan. Uning 2-moddasida esa o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakat hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilidan foydalanish huquqlariga monelik qilmasligi mustahkamlangan [1]. Ushbu huquqiy qoidalar davlat tilining mamlakat miqyosidagi birlashtiruvchi va rasmiy muloqot vositasi sifatidagi ahamiyatini belgilash bilan birga, til masalasiga millatlararo hurmat va bag‘rikenglik tamoyillari asosida yondashish zarurligini ham ko‘rsatadi. Demak, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini oshirish boshqa millat va elatlarning tillarini cheklashni emas, balki davlat tilining qonuniy vazifalarini to‘laqonli bajarishi bilan birga, mamlakatdagi lingvistik xilma-xillikni hurmat qilishni nazarda tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida ham davlat tili o‘zbek tili ekanligi belgilangan. Mazkur moddada mamlakat hududida yashovchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hamda an’analarini hurmat qilish va ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish davlat zimmasidagi vazifa sifatida qayd etilgan [2].

Bu konstitutsiyaviy norma davlat tilining alohida maqomini e’tirof etish va fuqarolarning tilga oid huquqlarini ta’minlash o‘zaro uyg‘un bo‘lishi lozimligini anglatadi. 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5850-son[2] “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni davlat tilini rivojlantirish siyosatida muhim bosqich bo‘ldi [3]. Farmonda davlat tilini rivojlantirish, qonunchilik talablariga rioya etilishini monitoring qilish, rasmiy yozma nutq me’yorlarini takomillashtirish, ta’lim tizimida til o‘rgatish sifatini oshirish, o‘zbek tilining ilm-fan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi o‘rnini mustahkamlash kabi vazifalar belgilangan. Mazkur hujjatning ahamiyati shundaki, unda davlat tilini rivojlantirish masalasi faqat ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan cheklanmay, davlat boshqaruvi, ta’lim, ilm-fan va raqamli texnologiyalarni qamrab oluvchi tizimli vazifa sifatida ko‘riladi. Bu esa til siyosatining natijadorligini baholashda huquqiy normalarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularning amaliyotga qay darajada tatbiq etilishini ham o‘rganishni talab qiladi.

1 https://lex.uz/ru/docs/-109394
2 https://lex.uz/docs/-4561730

2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan PF-6084-son[3] "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon bilan 2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi [4]. Ushbu hujjatda davlat tilining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi qo'llanishini kengaytirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tilning sofligini saqlash, ilm-fan tili sifatidagi salohiyatini oshirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalariga integratsiyasini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shunday qilib, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Endilikdagi asosiy vazifa ushbu huquqiy asoslarning samarali ijrosini ta'minlash, til siyosati natijalarini amaliy mezonlar asosida baholash va mavjud kamchiliklarni izchil bartaraf etishdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini mustahkamlash jarayonidagi muhim yutuqlardan biri til masalasining davlat siyosati darajasida izchil qo'llab-quvvatlanishidir. Xususan, 2019-yilgi PF-5850-son[4] Farmonda 21-oktabr sanasini O'zbek tili bayrami kuni sifatida belgilash to'g'risidagi taklif ma'qullangan [3]. Bu tashabbus tilning tarixiy ahamiyatini keng targ'ib qilish, jamiyatda ona tiliga hurmatni mustahkamlash va til masalalariga jamoatchilik e'tiborini oshirishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish – davlat tilini rasmiy ish yuritish va davlat boshqaruvi tizimida qo'llashni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlardir. Davlat tilidagi hujjatlarning mazmunan aniq, grammatik jihatdan to'g'ri va yagona me'yorlar asosida tuzilishi davlat organlari faoliyatining tushunarliligi va izchilligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, hujjatlarni davlat tilida sifatli tayyorlash xodimlardan tegishli til kompetensiyasi, imlo qoidalari va rasmiy uslub talablarini puxta bilishni talab qiladi.

Davlat tilining ta'lim va ilm-fan sohalaridagi mavqeyini oshirish ham ustuvor vazifalardan biridir. PF-5850-son[5] Farmon va PF-6084-son[6] Farmonda o'zbek tilini o'qitish tizimini takomillashtirish, til madaniyatini rivojlantirish hamda uning ilmiy faoliyatdagi imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan [3; 4]. Bu vazifalar o'zbek tilining nafaqat kundalik muloqot, balki ilmiy izlanishlar, kasbiy faoliyat va zamonaviy bilimlarni ifodalash vositasi sifatida ham rivojlanishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbek tilining raqamli makondagi imkoniyatlarini kengaytirish ham uning zamonaviy nufuzini belgilovchi muhim omildir. Elektron lug'atlar, imlo tekshiruv vositalari, sifatli raqamli matnlar, o'zbek tilidagi dasturiy mahsulotlar va elektron ta'lim resurslari tilning amaliy qo'llanish doirasini kengaytirishi mumkin. 2019-yilgi Farmonda o'zbek tilining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet tarmog'idagi o'rnini mustahkamlash, kompyuter dasturlarini yaratish masalalari bevosita belgilangan [3].

Biroq normativ hujjatlarda vazifalarning belgilanishi ularning barchasi to'liq amalga oshirilganini o'z-o'zidan anglatmaydi. Shu sababli erishilgan yutuqlarni baholashda davlat tilida yuritilayotgan hujjatlar sifati, ta'lim resurslarining mavjudligi, terminologik lug'atlarning amaliy qo'llanishi va raqamli vositalarning samaradorligi kabi ko'rsatkichlarni o'rganish lozim. Bunday yondashuv davlat tili siyosatining natijalarini umumiy fikrlar bilan emas, balki tekshiriladigan dalillar asosida tahlil qilish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi mustahkamlangan bo'lsa-da, uning barcha sohalarda yuqori sifatda qo'llanishini ta'minlash doimiy e'tibor talab qiladi. Mazkur masalani o'rganishda normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar bilan amaliyotda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni farqlash muhimdir. Quyida ko'rib chiqiladigan muammolar davlat tilini rivojlantirish hujjatlarida qayd etilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqadigan tahliliy yo'nalishlardir; ularning tarqalish darajasini aniqlash uchun alohida empirik tadqiqotlar zarur.

*Birinchi muammo* – **rasmiy yozishmalarda adabiy til me'yorlariga izchil rioya etish masalasidir.** Rasmiy hujjatlarda imlo, tinish belgilari, grammatik qurilish va uslubiy aniqlik talablariga amal qilinmasligi matn mazmunining noto'g'ri anglanishiga yoki hujjat sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli davlat tashkilotlarida hujjatlarni tahrir qilish amaliyotini takomillashtirish, xodimlarning savodxonligini oshirish va imlo me'yorlarini tekshiruvchi vositalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

*Ikkinchi muammo* – **ilmiy-texnik terminologiyani shakllantirish va bir xilda qo'llashdir.** Fan va texnologiyalar tez rivojlanayotgan sharoitda yangi tushunchalar va atamalar muntazam ravishda muomalaga kirib keladi. Agar muayyan terminning o'zbekcha muqobili, izohi va qo'llanish doirasi aniq belgilanmasa, bir tushuncha turli

3 https://lex.uz/docs/-5058351
4 https://lex.uz/docs/-4561730
5 https://lex.uz/docs/-4561730
6 https://lex.uz/docs/-5058351

matnlarda har xil shaklda ifodalanishi mumkin. Bu holat ilmiy muloqotda aniqlikni ta'minlashni qiyinlashtiradi. Mazkur masalani hal etish uchun sohalar kesimida terminologik lug'atlarni muntazam yangilash, mutaxassislar va tilshunoslar hamkorligini kuchaytirish hamda tasdiqlangan terminlardan amaliyotda izchil foydalanish zarur.

*Uchinchi muammo* – **davlat tilining ilm-fan va oliy ta'limdagi imkoniyatlarini kengaytirishdir.** Ilmiy bilimlarning o'zbek tilida sifatli bayon qilinishi uchun darsliklar, monografiyalar, ilmiy lug'atlar va terminologik manbalar yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Shuningdek, o'zbek tilida ilmiy matn yozish ko'nikmalarini shakllantirish, akademik uslub talablarini o'rgatish va turli fan yo'nalishlarida o'zbek tilidagi ilmiy manbalardan foydalanishni rag'batlantirish muhimdir. Bu vazifalar tilning ilmiy salohiyatini oshirish bilan birga, milliy ilmiy merosning shakllanishiga ham xizmat qiladi.

*To'rtinchi muammo* – **raqamli muhitda o'zbek tilini to'laqonli qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishdir.** O'zbek tilidagi raqamli resurslarning sifati va qulayligi tilning internetdagi mavqeyiga ta'sir ko'rsatadi. Imlo tekshiruv dasturlari, nutqni matnga aylantirish tizimlari, avtomatik tarjima vositalari va elektron lug'atlarning rivojlanishi o'zbek tilidan zamonaviy texnologiyalarda samarali foydalanishga yordam beradi. Buning uchun sifatli matn korpuslarini yaratish, raqamli lingvistik ma'lumotlarni standartlashtirish va tilshunoslar bilan axborot texnologiyalari mutaxassislari hamkorligini kuchaytirish talab etiladi.

*Beshinchi muammo* – **til siyosati natijalarini muntazam baholash mexanizmlarini takomillashtirishdir.** Davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi faqat o'tkazilgan tadbirlar soni yoki qabul qilingan hujjatlar bilan emas, balki ularning amaliy natijalari bilan ham o'lchanishi kerak. Masalan, rasmiy hujjatlarda til me'yorlariga rioya etilishi, terminologik birliklarning bir xilda qo'llanishi, o'zbek tilidagi ilmiy va elektron resurslarning sifati kabi ko'rsatkichlarni muntazam o'rganish mumkin. Bunday monitoring mavjud muammolarni aniq belgilash va resurslarni eng zarur yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi.

## XULOSA

Umuman olganda, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish uzluksiz va ko'p yo'nalishli jarayondir. Uning samaradorligi qonunchilik talablarining izchil bajarilishi, til madaniyatining rivojlanishi, ilmiy va texnologik imkoniyatlarning kengayishi hamda jamiyatning tilga mas'uliyatli munosabati bilan belgilanadi. Shu bois davlat tili taraqqiyotini faqat huquqiy maqom doirasida emas, balki ta'lim, ilm-fan, davlat boshqaruvi va raqamli kommunikatsiyani qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni. 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan, 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda tasdiqlangan. LexUZ. https://lex.uz/uz/docs/-121051.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprelda referendum orqali qabul qilingan yangi tahrir, 4-modda. LexUZ. https://lex.uz/docs/-6445145.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmoni. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. LexUZ. https://lex.uz/docs/-4561730.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni. Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. LexUZ. https://lex.uz/docs/-5058351
5. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 10-apreldagi O'RQ-615-son "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/-7750006
6. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-5388561
7. Ergasheva, Zebo Odiljon qizi. "Til siyosati va uning ijtimoiy ta'siri: o'zbek tilining davlat tili sifatida mustahkamlanishi". Scientific-jl.com, 2025.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №10(4)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.